



## TA'LIMDA DUAL YONDASHUVNING BO'LAJAK KADRLARNI TAYYORLASHDAGIJUSTUVOR JIHATLARI

**Sobirova Zulfiya Yusupjonovna**

Farg'ona viloyati Oltiariq tumani 20-sonli davlat maktabgacha  
ta'lim tashkiloti direktori

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15074221>

**Annotatsiya.** Maqolada yurtimizda dual ta'lim shaklining rivojlanish istiqbollari, mazkur yo'nalishda olib borilayotgan ishlar va dual ta'limni rivojlantirish bo'yicha olib borilayotgan ishlar haqida ma'lumotlar keltirilgan.

**Kalit so'zlar.** Dual ta'lim, tashkilot, professional ta'lim, texnikum, maktabgacha ta'lim, shartnoma

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 29 martdagi qarori bilan Professional ta'lim tizimida dual ta'limni tashkil etish tartibi to'g'risidagi nizom tasdiqlandi. Nizom asosida bugun joylarda ushbu ta'lim tajribasi qo'llanilib kelinmoqda. Iqtisodiyotni rivojlanishida o'rta bo'g'in kadrlarining o'rni alohida hisoblanadi. Ishlab chiqarish, sanoat va xizmat ko'rsatish sohalarida ishchi kasb va mutaxassisliklarga bo'lgan ehtiyoj juda yuqori ko'rsatkichlarni tashkil etadi.

An'anaviy ta'lim shaklida o'quvchi-talaba oliy yoki professional ta'lim muassasasida nazariy bilimlarni ko'proq egallab, amaliyot qismini juda oz soatlarda korxonada va tashkilotlarda o'taydi. Shuning uchun, rivojlangan mamlakatlarning ta'lim tizimi o'rganilib, zamonaviy texnologiyalar va dastgohlarda o'qish bilan bir vaqtda korxonada, tashkilotlarda ish faoliyatini olib borish imkoniyatini beruvchi dual ta'lim shakli O'zbekiston ta'lim tizimiga kiritildi.

"Dual" so'zi lotin tilidan olingan bo'lib, biror narsaning ikki qismga taalluqliligi, ikkita narsani ifodalovchi, ikki qismdan iborat, degan ma'nolarni bildiradi. Dual ta'lim – o'quvchi/talabaga ta'limni o'z yo'nalishiga mos tashkilotda mehnat qilish bilan birga olib borish imkoniyatini beruvchi tizimdir. Bunda yoshlar 2-3 kun ta'lim muassasasida nazariy bilimlarni va 3-4 kun korxonada va tashkilotlarda haqiqiy ish jarayonlarida amaliy ko'nikmalarni egallaydi.

Dual ta'lim shaklida tahsil olayotgan o'quvchi/talaba korxonada va tashkilotlarda ishga qabul qilinganda ularga korxonada tomonidan ustoz birlashtiriladi va oylik maoshi to'lanadi. Bugungi kunda ushbu tizim Germaniya, Avstriya, Shveysariya va Koreya Respublikasi kabi mamlakatlarda iqtisodiyotni rivojlantirishda juda katta o'ringa ega.





O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni 15-moddasiga muvofiq, "Dual ta'lim" ta'lim olish shakllaridan biri sifatida kiritildi. Qonunga dual ta'lim bo'yicha alohida modda (17-modda) ham kiritilib, dual ta'limni tashkil etish tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanishi ko'rsatib o'tildi. Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 29 martdagi qarori bilan "Professional ta'lim tizimida dual ta'limni tashkil etish tartibi to'g'risidagi Nizom" tasdiqlandi. Bugungi kunda dual ta'limni yanada rivojlantirish bo'yicha xorij tajribasini o'rgangan holda, qonunchilik hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish bo'yicha tegishli ishlar olib borilmoqda.

Dual ta'limni joriy etishdan ko'zlangan maqsad – iqtisodiyotning barcha sohalarda malakali va zamonaviy kasbiy ko'nikmalarga ega o'rta bo'g'in kadrlarini tayyorlash hamda yoshlarning kasblar va mutaxassisliklarni egallashga bo'lgan qiziqishlarini qo'llab-quvvatlash uchun keng imkoniyatlar yaratishdan iborat.

Aytib o'tganimdek, yoshlar ta'lim olish bilan birga haqiqiy ish joyida o'z kasbiy ko'nikmalarini rivojlantiradilar. Dual ta'lim shakli professional ta'lim tizimida yo'lga qo'yildi. 2021-2022 o'quv yilidan boshlab, maktabgacha ta'lim, temir yo'l va qurilish kabi sohalarda o'rta bo'g'in kadrlarini tayyorlash maqsadida professional ta'lim muassasalariga dual ta'lim shakli bo'yicha 3 mingdan ortiq yoshlar o'qishga qabul qilindi.

2022-2023 o'quv yilida professional ta'lim muassasalariga 4,5 mingdan ortiq yoshlar dual ta'lim shaklida o'qishga qabul qilindi hamda yuqorida aytib o'tilgan sohalarga qo'shimcha ravishda axborot texnologiyalari, yengil sanoat, qishloq xo'jaligi va xizmat ko'rsatish kabi sohalarda ham dual ta'lim shaklida kadrlar tayyorlash yo'lga qo'yildi. Bugungi kunda hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishidan kelib chiqib, 7,5 mingdan ortiq yoshlar respublikamizdagi professional ta'lim muassasalarida dual ta'lim shaklida ta'lim olib, 1,5 mingga yaqin korxonalar va tashkilotlarda ish faoliyatini olib bormoqda.

Oliy ta'lim tizimida esa faqat Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat institutida dual ta'lim asosida o'qitish yo'lga qo'yilgan (3- va 4-bosqich talabalari uchun). Kelgusi o'quv yilidan boshlab, bosqichma-bosqich boshqa oliy ta'lim muassasalarida ham dual ta'lim shakli asosida kadrlar tayyorlashni yo'lga qo'yish rejalashtirilgan.[1]

tashkilot — professional ta'lim muassasasi bilan dual ta'lim asosida kadrlar tayyorlash bo'yicha shartnoma tuzgan yuridik shaxs;

dual ta'lim dasturi — professional ta'lim muassasasi va tashkilotda ta'lim oluvchining muayyan kasb yoki mutaxassislik bo'yicha kasbiy faoliyatini va





mehnat vazifalarini bajarishiga qaratilgan davlat ta'lim standarti, o'quv rejasi, o'quv dastur (modul)lari, o'quv va ishlab chiqarish amaliyoti dasturlaridan iborat hujjatlar to'plami;

ish joyi — dual ta'limda ta'lim oluvchiga tashkilotning ichki tartib-qoidalari, tegishli vazifalari hamda ta'lim dasturlariga muvofiq amaliy ko'nikma va malakalarni egallash uchun belgilangan ish o'rni;

o'quv-amaliy qism — dual ta'lim dasturiga muvofiq professional ta'lim muassasasida o'tkaziladigan amaliy mashg'ulotlar va o'quv amaliyoti;

ustoz — ta'lim jarayonining ishlab chiqarish bilan bog'liq amaliy qismini o'tkazish uchun tashkilot tomonidan o'quvchi(lar)ga birlashtirilgan mas'ul shaxs;

shartnoma — tashkilot va professional ta'lim muassasasi hamda tashkilot va o'quvchi o'rtasida dual ta'limni amalga oshirish uchun tuzilgan hujjat.[2]

Hozirda respublika bo'yicha 57 ta professional ta'lim muassasasida Germaniya tajribasi asosida ish joyida o'qitishning dual ta'lim shakli yo'lga qo'yilgan.


Davlat rahbarining so'zlariga ko'ra, maktabgacha ta'lim tizimida bu o'z natijasini bergani ta'kidlandi — pedagogika kolleji o'quvchilari 2 kun nazariy bilimlarni kollejda oladi, qolgan 4 kun esa bog'chalarda amaliyot o'taydi va ishlab, oylik oladi.[3]

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev 2024 yilda ta'lim, sog'liqni saqlash, raqamlashtirish, madaniyat va sport sohalarida amalga oshirilishi lozim bo'lgan ustuvor vazifalarga bag'ishlab o'tkazilgan videosektor yig'ilishida mamlakatimizda ta'lim-tarbiya tizimini takomillashtirish, malakali mutaxassislar tayyorlash, texnikum va oliy o'quv yurtlari bitiruvchilari bandligini ta'minlash, ilm-fan va innovatsiya sohalarini rivojlantirish borasida oliy o'quv yurtlari zimmasiga qator vazifalar yuklandi.[4]

Prezidentimiz yig'ilishda maktabgacha ta'lim, maktab ta'limi va oliy ta'lim tizimlari, ilmiy-tadqiqot muassasalari hamda ishlab chiqarish korxonolari o'rtasidagi hamkorlikni mustahkamlash, bu malakali va yuqori salohiyatli mutaxassislar tayyorlashning eng muhim omili ekanligini alohida ta'kidladi.

Ayniqsa, Prezidentimizning yig'ilishdagi: "Oliy ta'limda qamrov keskin oshdi, sohaga xususiy sektor kirib keldi. Lekin sifatga yetarli e'tibor qaratilmayapti. Masalan, talabalarning mustaqil ishlashi uchun muhit barcha oliygohlarda ham birdek namunali tashkil etilmagan.

Aksariyat kollej va texnikumlar ham, oliygohlar ham ish beruvchilar talabi bilan hisoblashmaydi. Ayrimlarida darslik va adabiyotlar yetishmaydi, bori ham





bugungi talablarga javob bermaydi. Ilm-fan va innovatsiyalarga yetti yilda 6 trillion soʻmdan ziyod mablagʻ ajratildi.

Lekin ilm-fanda “xarajat – tadqiqot – mahsulot” degan formula ishlamayapti” deya aytgan tanqidiy fikrlari oliy taʼlim tizimiga daxldor har bir kishini jiddiy oʻylantiradi, bu boradagi ishlarni tubdan koʻrib chiqishga undaydi.

Mamlakatimizda davlatimiz rahbari tomonidan 50 ming kollej-texnikum oʻquvchisini dual taʼlim bilan qamrab olishni tashkil qilish boʻyicha topshiriq berilgan.

Universitetlar tasarrufidagi texnikumlarda ushbu masalaga alohida eʼtibor qaratilgan. Misol uchun, Andijon davlat universiteti qoshidagi Izboskan agrosanoat hamda Shahrixon agrosanoat texnikumlarida dual taʼlim yoʻnalishlari tashkil etilgan.

Bugungi kunda mazkur taʼlim muassasalarida yengil sanoat buyumlari konstruksiyasi va texnologiyasi, neft va gazni qayta ishlash, buxgalteriya hisobi va audit, maktabgacha taʼlim tashkiloti uslubchisi mutaxassisliklari boʻyicha 50 nafardan ortiq oʻquvchi tahsil olmoqda.

Oʻquvchilarning amaliyot oʻtash jarayonlarini samarali tashkil etish va nazariy olgan bilimlarini amaliyot orqali mustahkamlash maqsadida 40 dan ortiq tashkilot hamda korxonalar bilan hamkorlik shartnomalari imzolangan. Umuman, texnikumlarimizda dual taʼlim asosida oʻqitish yanada kengayadi.

Bir soʻz bilan aytganda, prezident tashabbusi bilan maktabgacha va maktab taʼlimi tizimi, texnikum, kollej va oliy oʻquv yurtlarida yechimini topmayotgan yoki zarur darajada amalga oshirilmayotgan qator masalalarni hal etish va ijobiy natijalarga erishish yuzasidan aniq vazifalar belgilab borilmoqda va ishonamizki kelajakda dual taʼlim shakli oʻzining ustuvor ahamiyatini oshirib, yangi loyihalar asosida rivojlanadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. <https://kknews.uz/oz/125113.html>
2. <https://lex.uz/uz/docs/-5346217>
3. <https://www.gazeta.uz/oz/2022/06/15/dual-system/>
4. [https://uza.uz/oz/posts/dual-talim-yanada-kengayadi\\_567519](https://uza.uz/oz/posts/dual-talim-yanada-kengayadi_567519)

